



Boshlang'ich sinf matematika darslarida arifmetik amallarni

o'rganishda topshiriq va masalalar ustida ishlash

G'ofurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori(PhD).

Po'latova Mohichehra Azizjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi
mohichehrapolatova08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida arifmetik amallar o'rganishda matnli masalalar va topshiriqlar ustida ishlash masalasi yoritilgan. O'quvchilarning sonlarni bajarishda taqqoslash, qo'shish, ayirish, bo'lish va ko'paytirish amallarini qachon va qaysi paytda bajarish kerakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qo'shish amali, ayirish amali, ko'paytirish amali, bo'lish amali, natural sonlar to'plami, birdan yuzgacha bo'lgan sonlar to'plami, taqqoslash

Boshlang'ich sinf uchun matematika dasturlarining xususiyati shundaki, bitta mavzu doirasida turlicha xarakterdagi arifmetik va geometrik material mujassamlashgan. Masalan arifmetik amallar bajarish mavzusida bu amallarni o'zlashtirish misollar yordamida ham kesmalar yordamida ham ko'zda tutilgan.

O'quvchilar qo'shish ayirish amallarini oson hisoblashni og'zaki va yozma hisoblashni bilib olishadi.. Avvalo natural sonlar haqida tushuncha beriladi. Natural sonlar eng kichigi 1 ekanligi va cheksiz davom etishi aytib o'tiladi



1. Misollarni namunaga qarab yeching:

$$100 - 43 = (100 - 40) - 3 = 60 - 3 = 57$$

40 3

$100 - 65$

$100 - 36$

$100 - 52$

$100 - 25$

$100 - 78$

$100 - 47$

O'quvchilarga avvalo qo'shish, ayirish amallarini qachon va qaysi payt bajarilishi kerakligi aytib o'tiladi. Oson guruhlash usuli ham tushuntirib o'tiladi. Masalan: $(122 + 10 - 2)$ berilgan bo'lsa $(122 - 2) + 10$ qilinsa oson ishlanishi o'rgatiladi.

O $(27 + 83) - 13$

V $45 + 19 - 9$

A $22 + 39 + 18$

U $80 - 15 - 15$

M $36 - (16 + 9)$



N $13 + 46 + 14$

R $25 + 58 - 15$

H $100 - 27 - 13$


11	97	55	79	68	97	50	73	73	79	60	68

Namunada ko'rsatilgandek sonni o'nlik va birlikka ajratib hisoblash ham o'rinli. Yuqorida ko'rsatilgan misolda avval misollarni guruhlab keyin 2-amal bajariladi.



Qo'shish ayirish arifmetik amallarini bajarishda taqqoslashni ham bilish katta ahamiyatga ega.

Taqqoslang:





$$8 + 6 \square 13$$

$$9 + 7 \square 18$$

$$7 + 6 \square 15$$

$$7 + 5 \square 12$$

$$8 + 8 \square 14$$

$$9 + 5 \square 11$$

Taqqoslang.

Sonlarni taqqoslashda asosan amallarni to'g'ri ifodalash kifoya ya'ni birinchi berilgan amal to'g'ri bajariladi va yondagi songa tenglashtiriladi va katta $>$ yoki kichkina $<$ amali qo'yiladi.

4. Taqqoslang:

$$100 \square 90 \quad | \quad 29 \square 92 \quad | \quad 49 \square 49 \quad | \quad 65 \square 56$$

Arifmetik amallarni sonli ifodalarda emas balki kesmalarda bajarishimiz mumkin. kesmalarda $AB=12$, $DB=8$ AD ni toping deyilgan bo'lsa chizma o'quvchilarga doskaga chizib tushuntiriladi


A-----D-----B

Umumiy 12(sm) bo'lsa bizga DB (8sm) berilgan AD ni topish uchun $AB-DB=AD$ shu amalni bajarsak AD kelib chiqadi: $12-8=4$ (sm) kelib chiqadi demak $AD=4$ (sm)

$$100 \text{ sm} = 1 \text{ m} \quad 10 \text{ sm} = 1 \text{ dm} \quad 1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

Bu tasmaning uzunligi 10 sm yoki 1 dm ga teng.





100lik sanoq sistemasi ichida ko‘paytirish va bo‘lish amallari ham o‘z qoidalari asosida bajariladi. Ya`ni qo‘shish yoki ayirish amallari bilan birga kelsa birinchi ko‘paytirish yoki o‘lish amali bajariladi. $12:3+4*3=16$

1) $12:3=4$ 2) $4*3=12$ 3) $4+12=16$ kelib chiqadi.


Lekin qavslar bilan kelganda birinchi o‘rinda qavs ichidagi amal bajariladi.

O'qituvchi $(42 + 36) : 6$	Pedagog $(54 + 18) : 9$	Olim $(24 + 21) : 5$	O'qituvchi $(30 + 12) : 6$
---	--	---	---

Birinchi qavs ichi $42+36=78$ ni qo‘shib keyin chiqqab javobni $78:6=13$ ga bo‘lsa ham bo‘ladi, yoki $42:6=7$, $36:6=6$ $7+6=13$ bajarsa ham bo‘ladi.

1-masala: Aziza masalani bunday yechibdi:

$(12+18+6):3=12$ Madina esa bunday yechibdi: $12:3+18:3+6:3=12$






Yig‘indini biror songa bo‘lish uchun har bir qo‘shiluvchini shu songa bo‘lib,bo‘linmalarni qo‘shish mumkin.Tekshirib ko‘ring:

$$(30+18):6=30:6+18:6=5+3=8$$

$$(30+18):6=48:6=8$$

O‘quvchilarni yana ham zukkoligini sinash uchun turli xil qiziqarli o‘yinlar qilish darkor.Masalan:bunda o‘quvchilar kataklarga mos sonlarni o‘ylab topishadi.

2-masala.Har bir askar safda shaxsiy nomerga ega.Jadvaldagi son askarning o‘z joyida turganligini ko‘rsatadi.Qaysi nomerlar tushirib qoldirilgan?



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12		14	15	16	17		19	20
21	22	23	24	25	26		28	29	30
	32	33	34		36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48		50
51	52		54	55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66	67	68		70
71	72	73	74	75	76	77		79	80
81	82	83	84	85		87	88	89	90
91	92		94	95	96	97	98	99	100



Bu orqali o‘quvchilarni yuzgacha sonlarni mukammal yod olishganini bilib olish mumkin.3-masala.Ifodalarni yozing.Bo‘sh kataklarga tushirib qoldirilgan sonlarni shunday qo‘yingki,natijada to‘g‘ri tengliklar hosil bo‘lsin.Ifodalar ostidagi sonlar amallar natijalarini ko‘rsatadi.

$$\boxed{} - \boxed{} \cdot \boxed{} + \boxed{} = 72$$

Diagram showing the calculation: $56 \cdot 9 = 72$

$$(\boxed{} - \boxed{}) \cdot \boxed{} + \boxed{} = 100$$

Diagram showing the calculation: $(9 - 54) \cdot 100 = 100$

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida qo‘llanuvchi masalalar o‘quvchilarning 100lik sanoq sistemasi ichida arifmetik amallarni qachon va qaysi vaqtda yoki og‘zaki yoki yozma hisoblashga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.O‘rinboyeva-Toshkent:Respublika ta‘lim markazi,2021.-160 b.Matematika 1-sinf [Matn]:darslik/
2. Matematika.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik,3-qism I.V.Repyova,Y.V.Zemlina.-Toshkent:"Novda Edutainment".2023.-104 b.
3. Matematika.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik,III qism I.V.Repyova.-Toshkent:"Novda Edutainment".2023.-132 b.
4. Matematika.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik,II qism I.V.Repyova.-Toshkent:"Novda Edutainment".2023.-100 b
5. Jumayev M.E., Z. G‘. Tadjiyeva.Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi (OO‘Y uchun o‘quv qo‘llanma) T. " Fan va texnologiya " 2020-yil
6. Repyova I.V. 4-sinf 1-qism. Matematika. Darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti. 2023.-128 b
7. Repyova I.V. 3-sinf . Matematika. Darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti. 2023.-134 b
8. Repyova I.V. Matematika 2-sinf . Matematika. Darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti. 2023.-134 b